



O'ZBEKISTON-TURKIYA: SAN'AT VA MADANIYAT TA'LIMIDA O'ZARO HAMKORLIK

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov hamda Turkiyaning Egey universiteti professori, filologiya-falsafa fanlari doktori Metin Ekisi va Egey universiteti Adabiyot fakulteti dekani filologiya fanlari doktori, professor Selami Fidakarlar tashrif buyurishdi.



Institut rektori filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yuldashev bilan bo'lib o'tgan o'zaro muloqot chog'ida ikki oliy ta'lim dargohi o'rtasi kelajakda ko'zda tutilgan kelishuvlar, folklor va milliy qo'shiqchilik san'ati yo'nalishlarida qo'shma kafedralar tashkil etish masalasida fikr almashinildi.



Tashrif chog'ida mehmonlar O'zDSMI xalq ijodiyoti fakulteti,

u yerda yosh ijodkorlarga yaratib berilgan sharoitlar bilan ham yaqindan tanishishdi.



Yaqin vaqtda O'zbekiston va Turkiya san'at-madaniyat ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

O'zDSMI Axborot xizmati